

Mantiqut-tayr (II- qism)

Farididdin Attor

O‘TTIZ BIRINCHI MAQOLA BOSHQA BIR QUSH SAVOLI

Boshqa bir qush Hudhuddan so‘radi:

— Ul Podshoh huzurida insof va vafo qanday qadrlanadi? Haq taolo meni insofu adolat tuyg‘usi bilan siylagan, birovga bevafoqlik ham qilmadim. Agar bir odamda bu sifatlar jamlangan bo‘lsa, ma‘rifatda uning martabasi qanday bo‘ladi?

HUDHUDNING UNGA JAVOB

Hudhud dedi:

— Insof najot sultonidir, kimki insofli bo‘lsa, u behuda vaysaqi gaplardan qutuladi. Agar sen insof bilan ish qiladigan bo‘lsang, bu bir umr namoz o‘qib, sajdaga bosh qo‘yib yurishdan ko‘ra yaxshiroqdir. Jahonda odamlarga beg‘araz insof bilan muomala qilish, zimdan byldirmay hojatlarni chiqarishdan ko‘ra ulug‘roq savob, yaxshiroq javonmardlik yo‘q. Kimki oshkoro ravishda insof ko‘rsatsa, bunday odamda riyo kam ko‘rinadi, yodingda tut. Haq yo‘liga kirgan futuvvat mardlari boshqalardan insof talab qilmaydilar, ammo o‘zlari insofda ustuvor bo‘ladilar, borlarini bag‘ishlaydilar.

AHMAD HANBAL HIKOYATI

Ahmad Hanbal - o‘z davrining peshqadam imomi edi, uning sharhu fatvolari ta‘rifu tavsifdan baland edi. Payg‘ambarning musaffo ilmini o‘rganish uchun dars olishdan forig‘ bo‘lgach, darhol Bishr Hofiyning qoshiga kelardi.

Ammo Ahmadni Bishr oldida ko‘rganlar uni qattiq malomat qilardilar, ya‘nikim:

— Axir sen olam imomisan, sendan donoroq, olimroqodam yo‘q. Kim so‘z aytsa, eshitmay, o‘zingni chetga olasan, lekin shu boshi yalang, egnida janda darvesh oldiga kelasan. Buning ma‘nosi nima?

Ahmad Hanbal dedi:

— Men hadis va fiqh ilmida tengsizman. Ilmda men undan ustunman, bilimim ko‘p, va lekin u Allohni mendan ko‘proq biladi. Ey o‘zining insofsizligidan bexabar odam, tariqat ahli, ulug‘ valiyilar insofiga bir lahza boqqil.

HINDISTON SHOHINING MAHMUD G‘AZNAVIY QO‘LIGA ASIR TUSHGANI

Hindlarning qari bir podsholari bor edi. Sulton Mahmud bilan jangda asir tushdi. Uni bandi qilib Mahmud oldiga keltirdilar. Sulton uni afv etdi va hindlar shohi musulmon dinini qabul qildi. Musulmonchilikda Allohni yaqindan taniy boshladi, ikki olamdan